

TASDIQLAYMAN

Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig'i

U.Elmuratov  
*aprel* 2025 yil



**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**“Statistika ishlarini tashkil etish va ma'lumotlarni tarqatish bo‘limi”ning**  
**NIZOMI**

**I. Umumi qoidalar**

1. Mazkur Nizom Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Statistika ishlarini tashkil etish va ma'lumotlarni tarqatish bo‘limining (keyingi o'rnlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Statistika ishlarini tashkil etish va ma'lumotlarni tarqatish bo‘limi statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalariga, “Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariiga amal qiladi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqarma boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i o‘rnbosariga bo‘ysunadi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqarmaning tarmoq bo‘limlari, boshqa tarkibiy bo‘limlar va tuman(shahar) statistika bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

**II. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari**

7. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Statistika ishlarini tayyorlash yillik Dasturiga muvofiq viloyat bo‘yicha hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yig‘ma statistik va iqtisodiy-tahliliy ma'lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish va taqdim etishni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

statistik ko‘rsatkichlarning xaqqoniyligi, ishonchliligi, tezkorligi va tizimliliginin ta‘minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

tarmoq bo‘limlari bilan birgalikda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlarini bajarilishi yuzasidan statistik kuzatuvlarni tashkil etish;

Davlat hokimiyyati va boshqaruv organlarini, o‘z-o‘zini boshqarish organlarini, yuridik shaxslarni, fuqarolar, tashkilotlar va jamoatchilikni belgilangan tartibda statistik axborotlar bilan ta‘minlash;

viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tavsiylovchi statistik ko‘rsatkichlarning xaqqoniyligini, ishonchlilagini, komplekslilagini va tizimliliginin ta‘minlash;

viloyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish, umumlashtirish va tahlil etish;

statistika kuzatuvlarini tashkil etish va metodologiyasi, shuningdek rasmiy statistik ma'lumotlar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini amalga oshirish;

xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar tomonidan statistika sohasidagi qonunchilikning bajarilishini amaldagi qonunchilik asosida nazoratini amalga oshirish;

boshqarma bo‘limlari, shuningdek, tuman (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan amaldagi qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ko‘rsatma va topshiriqlariga rioya qilinishi borasida monitoringni ta‘minlash;

boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan statistika ishlarini tayyorlash Dasturining o‘z vaqtida bajarilishi bo‘yicha monitoring o‘tkazish;

hudud miqyosida birlamchi statistik axborotlarni yig‘ish va qayta ishslash tizimini takomillashtirishni ta’minlash bo‘yicha statistika boshqarmasi tarmoq bo‘limlari va tuman (shahar) statistika bo‘limlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

8. Bo‘lim o‘ziga yuklatilgan vazifalarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

viloyat bo‘yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig‘ma statistik va iqtisodiy-tahliliy ko‘rsatkichlarni xaqqoniyligi, ishonchliligi, tezkorligi va tizimlilagini ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Statistika ishlarini tayyorlash Dasturining bajarilishi, statistik ma’lumotlarning haqqoniyligi va to‘liqligini ta’minlash, ma’muriy javobgarlikni qo‘llash bo‘yicha monitoringni amalga oshiradi va uning natijalari bo‘yicha har oyda statistika boshqarmasi rahbariga va Milliy statistika qo‘mitasiga axborot taqdim etadi;

tarmoq bo‘limlari uchun yig‘ma statistik axborotlarni, jadval va matnli materiallarni ishlab chiqadi hamda chop etadi;

mahalliy davlat boshqaruvi organlari uchun statistik axborot va ma’lumot materiallarni tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi;

“Hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari” to‘g‘risida har chorakda hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to‘g‘risida boshqa axborot-statistik ma’lumotlar, nashr va to‘plamlar chop etish bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi;

hududiy statistika bo‘limlari tomonidan me’yoriy va huquqiy hujjatlarga amal qilinishi bo‘yicha har oyda monitoringni amalga oshiradi;

statistik hisobotlarni taqdim etish tartibini buzgan, hisobot ma’lumotlarini buzib ko‘rsatgan yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarining buzilishiga yo‘l qo‘yan shaxslarni qonunchilikka asosan ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha belgilangan tartibda taklif kiritadi;

tuman (shahar) statistika bo‘limlari xodimlari tomonidan ma’muriy javobgarlik bo‘yicha me’yoriy hujjatlarning rasmiylashtirilishining to‘g‘riligini boshqarma yuriskonsulti tomonidan ekspertizadan o‘tkazishda ishtirot etadi;

tuman (shahar) statistika bo‘limlarida statistik ma’lumotlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha statistika organlari ko‘rsatmalarining bajarilishi va qo‘llanilgan jarima mablag‘larining o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash bo‘yicha monitoringni amalga oshiradi;

statistika ishlarini tashkil etish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) statistika bo‘limlariga amaliy yordam ko‘rsatadi;

bo‘limda statistik ma’lumotlarni shakllantirish, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi;

bo‘limga yuklatilgan boshqa funksiyalarni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **III. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi**

9. Bo‘lim o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

boshqarma bo‘limlari va hududiy statistika bo‘limlaridan belgilangan tartibda bo‘lim vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

statistika faoliyatini tashkil etish bo‘yicha boshqarma rahbariyatiga taklif kiritish;

tayyorlangan statistik axborotlarning xaqqoniyligi va taqdim etish muddatlariga rioya qilinishini tuman(shahar) statistika bo‘limlari va boshqarma bo‘limlaridan talab etish;

boshqarma bo‘limlari va tuman(shahar) statistika bo‘limlari bilan ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirish;

boshqarma bo‘limlari bilan qo‘yilgan vazifalar, kelib tushadigan hujjatlar nazorati va ishda tajriba almashish bo‘yicha instruktiv yig‘ilishlar o‘tkazish;

davlat statistika hisobotlarini yig‘ish, qayta ishslash muddatlarini qisqartirish va to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish;

10. Bo‘lim quyidagilar uchun javobgar:

o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning zarur darajada va samarali bajarilishi uchun;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va viloyat statistika boshqarmasi rahbariyati topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatlari bajarilishi, hisobot va ijro intizomini ta’minlanishi uchun;

Yagona ilmiy statistika metodologiyasiga asosan statistik axborotlar sifatini oshirish va tartibga solish;

o‘z vakolat doirasiga kiruvchi statistik, tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlash;

hisobotlarning xaqqoniyligi yuzasidan amaldagi nazorat tizimini ta’minlash, aniqlangan xato va kamchiliklarni sub’yektlar tomonidan o‘z vaqtida bartaraf etilishi, ma’muriy amaliyotni qo’llanilishida amaldagi qonunchilik me’yorlariga rioya qilinishi;

bo‘limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo‘yicha davlat va tijorat sirlari saqlanishini ta’minlash uchun.

#### **IV. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish**

11. Bo‘lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, ushu Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi buyruqlari va qarorlari, shuningdek statistika ishlarini tayyorlash dasturi, viloyat statistika boshqarmasining yillik ish rejasi asosida tashkil etiladi.

Bo‘lim xodimlarining lavozim vazifalari boshqarma boshlig‘i bilan kelishiladi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

12. Bo‘limga boshqarma boshligi tomonidan lavozimga tayinlanadigan ba lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

Bo‘lim boshlig‘i:

bo‘limning barcha faoliyatini boshqaradi va bo‘lim xodimlariga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni zarur darajada bajarilishini ta’minlaydi, ijro va mehnat intizomi holati uchun javob beradi;

bo‘lim ishining samaradorligini oshirish choralarini ko‘radi;

boshqarma boshlig‘i bilan birgalikda bo‘lim ishlarini takomillashtirish, statistika ishlarini tayyorlash dasturini shakllantirish bo‘yicha takliflarini ishlab chiqadi;

bo‘lim ishiga taalluqli bo‘lgan qarorlar qabul qilishda jamoa fikrini inobatga oladi va o‘zi bajarayotgan ishi, qabul qilingan qarorlar va ularning bajarilishi to‘g‘risida jamoani xabardor qiladi.

inson resurslarini rivojlantirish va maxsus ishlar bo‘yicha bo‘lim bilan birgalikda bo‘limni malakali xodimlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

bo‘lim xodimlari bilan qo‘yilgan vazifalar, kelib tushadigan hujjatlar nazorati va ishda tajriba almashish bo‘yicha instruktiv yig‘ilishlar o‘tkazadi;

ish yuritish ishlarini olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha belgilangan tartib va me’yorlarga qat’iy amal qilinishini ta’minlaydi;

xodimlar tomonidan bo‘limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo‘yicha Davlat va tijorat sirlariga rioya qilinishini va saqlanishini ta’minlaydi.

13. Bo‘lim boshlig‘i quyidagi vakolatlarga ega:

bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va boshqarma boshlig‘iga ko‘rib chiqish uchun taqdim etish;

xodimlarni yuqori va boshqa lavozimlarga o‘tkazish borasida takliflar kiritish, zarur hollarda ularga jazo choralar qo‘llash to‘g‘risida boshqarma boshlig‘iga takliflar kiritish;

boshqarma boshlig‘iga bo‘limning malakali xodimlari bo‘yicha ularning mehnatda erishgan yutuqlari va alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan topshiriqlarni bajargani uchun lavozim oylik maoshlariga shaxsiy ustamalarni belgilash, shuningdek avval belgilangan ustamalarni kamaytirish yoki bekor qilish to‘g‘risida takliflar kiritish;

bo‘lim ishini tashkil etishni, ish uslubi va usulini yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash masalalari bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

boshqarma rahbariyati tomonidan o‘tkaziladigan Kengash majlislari va yig‘ilishlarda ishtiroy etish;

bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxona va tashkilotlarda statistika boshqarmasi nomidan qatnashish;

bo‘limga kelib tushayotgan va undan chiqayotgan materiallar bo‘yicha Davlat va tijorat sirlarini saqlashni ta’minlash.